



ISLOMDA DO'STLIK VA AXLOQIY QADRIYATLAR

Ilmiy rahbar: Hurshid O'lmasjonovich Samatov

Axatqulov Anvar Abror o'g'li Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti samarqand filiali telekommunikatsiya va texnologiyalar va kasb ta'lim fakulteti 23-05-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada islomda do'stlik va axloqiy qadriyatlar tushunchasining mazmuni, mohiyati, uning inson hayotidagi o'rnini va ahamiyati fikrlar tahlil etilgan. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, bunda ta'lim-tarbiya tizimida barcha qismlarning alohida o'rnini va roli bor. Do'st qalbini munavvar etish, uni buyuk maqsadlarga yo'llash uchun ichki raqobat bo'luvchi g'oya bo'lishi, u odamlarda komil insonlik sifatlarini tarbiyalash vositasiga aylanmog'i lozim. Ertangi jamiyat va kelajak avlod ijtimoiy hamda ma'naviy qiyofasi bugungi tuzgan rejalarimiz, amalga oshiradigan ishlarimizga monand tarzda namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya sohasida nazarda tutilayotgan yangi tizimning g'oyaviynazariy asoslarini aniqlash, iymonli komil inson shaxsini shakllantirish hamda O'zbekistonda iymonli komil insonlar ittifoqini vujudga keltirish, shu jihatdan ulkan tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Islomda Do'stlik, Qadriyat, Ma'naviy Qiyofa, Iymon, Dunyoviy Imon, Diyonat, Vijdonlilik, Insof, Mehr-Oqibat, Sahovat, Adolatlilik

Аннотация: В статье анализируется значение и сущность понятия дружбы и нравственных ценностей в исламе, его место и значение в жизни человека. Улучшение духовно-нравственной среды в обществе – многогранный процесс, в котором все звенья системы образования занимают особое место и роль. Просветление сердца друга, ведение его к великим целям должно быть идеей, которая становится внутренним соревнованием, и она должна стать средством воспитания в людях совершенных человеческих качеств. Социальный и духовный образ общества завтрашнего дня и следующего поколения будет отражен в планах, которые мы построили, и в работе, которую мы будем выполнять сегодня. В этой связи большое историческое значение имеет определение идейно-теоретических основ новой системы, предусмотренной в сфере образования, формирования личности верующего человека и создания союза верующих людей в Узбекистане.



Ключевые слова: В Исламе Дружба, Ценность, Духовный облик, Вера, Мирская вера, Религия, Совестьливость, Честность, Сострадание, Щедрость, Справедливость.

Kirish. Men ushbu maqolada Insonning chin ma'nodagi insonligi- uning imoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi va halolligi, kamtarligi va boshqalar bilan o'lchanadi. Bu umumiy tarzda insoniylik tushunchasi bilan ifodalanadi. Insoniylik esa faqat imonli insonlardagina bo'ladi. Bu o'rinda hamma kishilar uchun umumiy tarzda tegishli bo'lgan masalalar ustida baholi qudrat fikr yuritimiz. Har birimiz imon tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglab, tushunib olsak, imonni izohlovchisi bo'lgan diyonat, vijdonlilik, insof, mehr-oqibat, sahovat, adolatlilik, poklik va halollik, kamtarlik va boshqa ma'naviylik fazilatlarining ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat imonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat, sahovat, muruvvat yo'lida bo'ladilar. Shuning uchun imon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosda bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Islom dini g'oyalari va qadriyatlari, unga e'tiqod qiluvchi xalqlar milliy ongning rivojlanishida bir turtki bo'lib asta-sekin ma'naviy ruhiy jihatdan jiplasha borib, yagona maslakdoshlar jamiyati vujudga kela boshladi. Zero, bu qadriyatlar va ruhiy bilimlar mohiyatini ezgulik va poklikka da'vat etuvchi g'oyalar tashkil etgan. Zardushtiylik dinining ezgulik yovuzlik ustidan pirovardida tantana qilish to'g'risidagi g'oya bilan tarbiyalanib kelgan xalqlar uchun islomdagi insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bir-birini to'ldirgandi.

Diniy qadriyatlar, marosim va an'analarning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Ibtidoiy din shakllaridan boshlangan bu jarayon milliy va jahon dinlari shakllanib, keng yoyila boshlagan paytlarda ancha rivojlangan. Hozirgi diniy qadriyatlarning mavjudligi diniy ta'limotlarga asoslansa-da uning rivojlanishi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyot bilan mustahkamlangan. Ular xalqimizning turmush tarzi va jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, shu jumladan islomiy qadriyatlari, noyob va betakror namunalarini tadqiq etish, ularni bugungi kun talablari bilan bog'liq holda boyitib targ'ib etishning yangi bunyod etilayotgan fuqarolik jamiyati uchun ahamiyati kattadir. Istiqlol yillarida buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, yubileylarini nishonlash mamlakatimizda odat tusiga kirib, millatimizning har tomonlama uyg'onib, kamol topishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan islom falsafasi asarlarini, diniy ulamo va allomalarning merosini nashr qilish, o'rganish,



targ'ib etish xalqimizni islomiy qadriyatlardan baxramand qilishga katta yo'l ochdi. Diniy imon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunyoviy imon ham bor. Dunyoviy imon mazmunini olam va odam haqidagi so'nggi ikki yarim ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mehnat ahlining to'plagan hayot tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy imonning o'zagi odamiylikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, qirralar, jihatlar g'oyat turli-tumandir. Odamiylik deganda xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi. Odamiylik g'oyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlariga hamda an'analariga, uning mislsiz boy og'zaki va yozma ijodiga, mumtoz adabiyotimiz va san'atimizga singib ketgan bo'lib, hozircha chuqur o'rganilib umumlashtirilgani yo'q. Dunyoviy imon odamlarni to'g'ri yo'ldan borishga qaratilgan ma'naviy qadriyatlar tizimidir. Imonli bo'lishning mohiyatini hayo, andisha, shirin so'zlik, halollik va adolatlik, ornomuslik, vijdonlik, vafodorlik, mehnatsevarlik, sahovatlik, mehr-muhabbatlik, hayr-ehsonlik kabi ahloqiy qadriyatlardan iborat ekanini ko'ramiz. Demak, imon komil insonning yetuk ma'naviy fazilatlar majmuidir. Imonsizlik esa vijdonsizlik, e'tiqodsizlik, tuban yo'llarga yurish, ahloq, odob, insonparvarlik qoida va talablariga rioya qilmaslikdir.

“Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l”, “O'zingga ravo ko'rmaganni boshqaga ham ravo ko'rma”, “Yomon o'z g'amida, yaxshi – el g'amida” singari hikmatlarda ajdodlarimiz ardoqlagan insoniylik qadriyatlarining bir zarrasigina aks etgan, xolos. Diniy va dunyoviy imonning mohiyatida tafovut bo'lsa ham, ularning mazmuni va shakliy tuzilishi bir xil. Chunonchi, diniy imonda hamma narsani yaratguvchi zot Allohga, dunyoviy imonda esa odamiylikka, chin insoniylikka urg'u beriladi. Ularning har ikkovi ham aslida kishini chinakam, bosh harflar bilan yoziluvchi INSON bo'lib tarbiya topishiga qaratilgan. Imonli odam boshqalarning diliga ozor bermaydi, balki odamlar qalbiga nur, ziyo ulashadi, ularni faqat yaxshi, ezgu amallarga o'rgatadi.

Imon kishilik hayotida shu qadar hal etuvchi mavqega egaki, usiz chin ma'nodagi inson ham, ahloq ham, demakki jamiyat ham bo'lmaydi. Imonli bo'lishga intilish qiyin hamda mashaqqatlidir. Imonli odam barcha qiyinchilik va mahrumliklarga ongli ravishda bardosh bergan holda halol-poklik, insofdiyonatlik, saxiylik, ezgulikni ulug'lash va yovuzlikka qarshi kurash, vatanparvarlik, xalqparvarlik kabi fazilatlarni o'zida gavdalantirishga harakat qiladi



va shunga erishadi. U maʼnaviy boylik va goʻzallikni moddiy toʻkin-sochinlikka aslo qurbon qilmaydi. Odamlar uchun yashash, ularning dilini oʻrinsiz ogʻritmaslik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik imonli insonning hayot dasturidir.

REFERENCES

1. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки и дик. Ж.1. / Тузувчимуа иф ар: К.Ҳошимов, Сафо Очи /. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1995 й.
2. Зуннунов А. Педагогика тари и. –Т.: “Шарқ” нашриёт-матбба акциядор ик компанияси бош таҳририяти. -2004 й.
3. Ҳасанбоева О. ва бошқа ар. Oila pedagogikasi. Т., «Aloqachi», 2007.
4. Akramov M. R. et al. Шахс касбий йўналганлиги ривожланишида масъулиятлиликнинг аҳамияти.
5. Gayibova, N. A. (2016). Influence of the sibling status's of teenagers on interpersonal relations. European Journal of Education and Applied Psychology,
6. Mirqosimova M. Principles of innovative pedagogy. Los Angeles, Colifornia USA oktober 2021.
7. Rasulova, N. T. (2022). МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Моя профессиональная карьера

А